

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi anjumanlar zalida "Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari: Yutuqlar va muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi



Unda, ICESCO ning Ozarbayjondagi regional ofisi ta'lim bo'yicha ekspertlari, shuningdek, Tojikiston, Qozog'iston, Ozarbayjon hamda Yaponiya, Germaniya davlatlaridan vakillar ishtirok etdi.



Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori Yuliya Risyukova, ICESCOning Boku hududiy ofisi rahbari Maryam Gafarzade, kirish so'zlari bilan ishtirokchilarni qutladilar.



Mazkur o'tkazilgan tadbirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ham bevosita ishtirok etib, "Raqamli texnologiyalar milliy madaniyat va san'at kadrlarini tayyorlashda strategik manbaa sifatida" mavzusida ma'ruza qildi.

Konferensiyaning asosiy maqsadi – madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlarni joriy etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro olimlar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda ijodiy uchrashuvlar va mahorat darslarini tashkil etishdan iborat bo'lib, unda quyidagi ilmiy yo'nalishlar o'rin oldi:

1. Madaniyat va san'at ta'limi tashkilotlarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish.
2. Madaniyat va san'at ta'limi: muammo va yechimlar.
3. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash istiqbollari.

Shuningdek, 300dan ortiq maqolalar kelib tushganmazkur xalqaro konferensiya 70dan ortiq maqolalar saralanib, "Madaniyat va san'at ta'lim tashkilotlarida o'qitishning zamonaviy metodlari:

yutuqlar vamualammolar” nomli ilmiy to‘plam yaratildi.



Shuningdek, konferensiya davomida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston va Ozarbayjon mutaxassislari tomonidan ma‘ruzalar tinglandi.